

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

OBIDOV JAMSHIDBEK G‘AYRATJON O‘G‘LI

**TEXNIKA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI
TALABALARIDA TEXNOLOGIK DETERMINIZM KONSEPSIYASI
ASOSLARIGA DOIR BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Obidov Jamshidbek G‘ayratjon o‘g‘li

Texnika oliy ta‘lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi
asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish.....3

Обидов Жамшидбек Гайратжон угли

Улучшение знаний об основах концепции технологического детерминизма у
студентов технических вузов..... 25

Obidov Jamshidbek Gayratjon ogli

Improvement of knowledge on the basics of the concept of technological determinism in
students of technical higher education institutions..... 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published work..... 52

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI

OBIDOV JAMSHIDBEK G‘AYRATJON O‘G‘LI

**TEXNIKA OLIY TA‘LIM MUASSASALARI
TALABALARIDA TEXNOLOGIK DETERMINIZM KONSEPSIYASI
ASOSLARIGA DOIR BILIMLARNI TAKOMILLASHTIRISH**

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Farg‘ona – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PHD/Ped3012 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona politexnika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Kambarova Diloram Yusupovna
pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Raximov Zokir Toshtemirovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Nishonov Mirkozimjon Fozilovich
texnika fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.11.2021.Ped.05.07 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil "13" 01 kuni soat 10:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. Gender tengligi tadqiqotlar markazi, 1-qavat, majlislar zali. Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@umail.uz)

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (232 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg'ona sh., Murabbiylar ko'chasi, 19 uy. ARM binosi. Tel.: (73) 244-44-02, e-mail: fardu_info@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil "4" 01 kuni tarqatildi.
(2023 yil "04" 01 da 1 - raqamli restr bayonnomasi).



B.Sh.Shermuhhammadov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi, p.f.d., professor

U.Q.Maqsudov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi, p.f.b.f.d. (PhD)

B.S.Siddiqov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, p.f.n., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv sharoitida texnologik rivojlanish orqali yangicha metodologik muammo, ya'ni texnikani notexnikaga: faoliyatga, texnik oqilonalik shakllariga, qadriyatlarga, madaniyatning muayyan jihatlariga reduksiyalash zarurati yuzaga kelmoqda. Texnogen sivilizatsiyaning inqirozi kelajakda texnologik rivojlanishi to'g'risida futurologik yondashuvlarni tizimli-funksional tartibda ishlab chiqish zaruratini taqozo etmoqda. Bu esa, texnologik determinizm konsepsiyasining ahamiyatini yanada orttirib, texnologik taraqqiyotning ijtimoiy taraqqiyotdagi salbiy ta'sirlari, yuzaga keltirayotgan o'zgarishlardagi o'rnini ko'rib chiqish vazifalarini yuklamogda.

Dunyoda ilg'or ilmiy tadqiqot institutlari va xalqaro markazlarida, jumladan, NRC (National Research Council Canada – Kanada milliy tadqiqot kengashi), CDW Corporation (CDW, NASDAQ - AQSh IT-yechimlar provaydyeri) va boshqa ko'plab xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida texnologik ta'limning ta'lim metodikasi va texnologiyasini ishlab chiqishga doir ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari moliyalashtirilmoqda, jumladan, JST (Japan Science&Technology Agency – Yaponiya fan va texnologiya agentligi)ning yapon firmalarini boshqarishga yo'naltirilgan “Yapon boshqaruv modeli” (Yaponiya boshqaruv tizimini tushuntirishda madaniy va texnologik determinizm) deb nomlangan konsepsiyasi orqali ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu esa texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasini o'qitishning pedagogik zarurati va metodik ta'minotini tizimli-funksional modellar orqali takomillashtirish oliy texnik ta'lim sohasida muhim vazifalardan biri hisoblanishini ko'rsatmoqda.

Respublikamizning raqamli texnologiyalarga asoslangan yangi taraqqiyot strategiyasida ham texnika ta'limini isloh qilish, texnologik innovatsiyalarni yaratish ishlarini qo'llab-quvvatlashga doir pedagogik faoliyat metodikasini ishlab chiqish zarurati ortib bormoqda. Mamlakatimizda bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish, ta'lim muassasalarida texnologik determinizm konsepsiyasini o'qitishning pedagogik faoliyatini tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish, ta'limiy jarayonlarda qo'llaniladigan fasilitatsion, texnoetik, akmeologik modellarni takomillashtirishning me'yoriy asoslarini ishlab chiqish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. “Garvard universiteti tadqiqotlariga ko'ra, mamlakatimiz 50 dan ortiq sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda barcha imkoniyatlar va nisbiy ustunliklarga ega. Ayniqsa, neft gaz-kimyoye, metallurgiya, mashinasozlik, elektrotexnika, farmasevtika, qurilish materiallari, to'qimachilik, charm-poyabzal, oziq-ovqat hamda “yashil iqtisodiyot” bilan bog'liq sanoat tarmoqlari iqtisodiyotimiz “drayverlari”ga aylanishi uchun barcha yetarli sharoitlar mavjud”¹. Bu esa texnika taraqqiyotiga doir konsepsiyalarni ilmiy tahlilini chuqurlashtirish, oliy texnik ta'limda talabalarning bu boradagi bilimlarini oshirish, shuningdek,

¹ Mirziyoev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2021. –B. 150.

texnologik konsepsiyalardan ishlab chiqarishda, sanoatda foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847 son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022 yil 28 yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022 yil 6 iyuldagi PF-165 son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari va 2018 yil 5 iyundagi PQ-3775 son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi hamda 2022 yil 21 iyundagi PQ-289 sonli “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta’lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori hamda boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish orqali Texnogen sivilizatsiyaning salbiy jihatlari, insonning avtomatlashuvi va robotlashuvi jarayoni, sun‘iy intellektning inson ongi bilan raqobatlashuviga doir ko‘plab sotsiologik hamda pedagogik tadqiqotlar olib borilgan, bugungi kunda ham bunday ilmiy izlanishlar muntazam olib borilmoqda.

Yurtimizda ham oliy texnik ta’lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasiga doir bilimlarni takomillashtirishning pedagogik-psixologik, nazariy, konseptual va texnologik asoslari P.Ismatullayev, D.Tojiboyeva, A.Yo‘ldoshev, P.Matyakubova, S.Aliboyev, D.Zaripova, B.Ma‘murov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Oliy malakali mutaxassislar tayyorlash va rivojlantirish jarayoni qonuniyatlari va tendensiyalari, bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik muammolari respublikamiz olimlaridan D.Tojiboyeva va A.Yo‘ldoshevlar hamda L.Bektursinova, O.Ismailov, D.Samatov, N.Orinbetov, Z.Chorshanbiyev, Yu.Pisetskiy va boshqalarning tadqiqot ishlarida muayyan darajada tadqiq qilingan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan S.Romashina, A.Loyko, M.Aleksyeva, E.Kabanova-Mellyer, E.Pervezenseva kabi olimlarning tadqiqotlarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslari orqali texnikani yaratish, foydalanish va takomillashtirishga qaratilgan metodikani rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatlari yoritilgan.

G'arb mamlakatlarida texnogen sivilizatsiya bilan bog'liq ijtimoiy muammolar, ta'limga axborot kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish nazariyasi va metodologiyasi, o'quv jarayonida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish masalalari olimlar J.Paul, J.Martin, V.Devlin, X.Bek, N.Vig, T.Doran, J.Ellyul, M.Xaydegger, K.Yaspers, D.Medouz, R.Byerk, F.Dyessauer, S.Xoking, Y.Masuda kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Bo'lajak muhandislarda texnologik determinizm konsepsiyasi bo'yicha kasbiy kompetentliklarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari, tuzilmasi, komponentlari, omillari, mezonlari va tasniflarini aniqlash, faoliyatga doir model, pedagogik texnologiyasi, tizimli-dasturi hamda didaktik ta'minotlarini takomillashtirish zarurati tadqiqotimiz mavzusini belgilab berdi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Farg'ona politexnika instituti ilmiy tadqiqot rejasining Davlat ilmiy texnika dasturlari doirasidagi "Mechauz" dasturi bo'yicha 609564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP raqamli "O'zbekistonda bakalavriat texnika ta'lim yo'nalishini innovatsion g'oyalar va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish" (2019-2023 yy.) mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning nazariy asoslarini tadqiq etishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bo'lajak muhandis metrologlarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish yuzasidan tavsiyalarni texnika ta'lim yo'nalishlari o'quv dasturlari mazmuniga singdirish, texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishga ta'sir ko'rsatuvchi pedagogik-psixologik omillarning o'zaro aloqadorligini aniqlash;

muhandislik ta'limining loyihaviy, tashkiliy va natijaviy komponentlarini texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishga yo'naltirish maxsus ta'lim texnologiyasining tizimli-funksional modelini tashkil etish orqali kompleksivlik, ko'rgazmalilik va ob'ektivlik darajalarini aniqlash imkoniyatlari tizimli-funksional, aksiologik, refleksiv hamda futurologik yondashuvlar asosida takomillashtirish;

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish sinergetik, germenektivik va praksiologik yondashuv orqali o'quv materiallarini imitatsion-variantivlik va vizual-amaliy yo'nalganlik imkoniyatlarini kengaytirish asosida ishlab chiqish;

bo'lajak muhandislarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning metodik ta'minot tizimi umumkasbiy fanlar mazmunini modellashtirish dasturlari bilan integratsiyalash eksperimental faoliyatni individuallashtirish bilan qayta aloqaga kirishuvining intensivligini kasbiy differensiallashtirish asosida takomillashtirish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning pedagogik jarayoni tanlangan bo'lib, tajriba-sinov ishlariga Farg'ona politexnika instituti, Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Namangan muhandislik-qurilish instituti va Jizzax politexnika institutlarining 453 nafar respondent-talabarlari jalb qilindi.

Tadqiqotning predmetini texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning mazmuni, shakl va vositalari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida muammoga oid ilmiy manbalar, didaktik materiallar, DTS, o'quv reja va dasturlari, o'quv-me'yoriy hujjatlar, darslik va o'quv-metodik adabiyotlarni qiyosiy o'rganish va tanqidiy tahlil qilish; olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, sintez qilish, taqqoslash, tasniflash, umumlashtirish, modellashtirish); empirik (so'rovnoma, test o'tkazish); matematik (statistik ma'lumotlarni qayta ishlash, korrelyatsion tahlil va noparametrik tekshirish usullari), modellashtirish, ekspert baholash, psixo-diaagnostika; pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

bo'lajak muhandis metrologlarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari (emotsionol-motivatsion, informatsion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik) gorizontaal va vertikal munosabatga kirishish darajasini hisobga olish asosida aniqlashtirilgan;

muhandislik ta'limining loyihaviy, tashkiliy va natijaviy komponentlarini texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishga yo'naltirish maxsus ta'lim texnologiyasining tizimli-funksional modelini tashkil etish orqali kompleksivlik, ko'rgazmalilik va ob'ektivlik darajalarini aniqlash imkoniyatlari tizimli-funksional, aksiologik, refleksiv hamda futurologik yondashuvlar asosida takomillashtirilgan;

texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish sinergetik, germenektivik va praktsiologik yondashuv orqali o'quv materiallarini imitatsion-variantivlik va vizual-amaliy yo'nalganlik imkoniyatlarini kengaytirish asosida ishlab chiqilgan;

bo'lajak muhandislarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning metodik ta'minot tizimi umumkasbiy fanlar mazmunini modellashtirish dasturlari bilan integratsiyalash eksperimental faoliyatni individuallashtirish bilan qayta aloqaga kirishuvining intensivligini kasbiy differensiallashtirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

bo'lajak muhandislarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish komponentlari, mezonlari, ko'rsatkichlari va darajalari aniqlashtirilgan;

bo'lajak muhandislarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon modeli

takomillashtirilgan va ta'lim amaliyotiga joriy etilgan;

bo'lajak muhandislarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishga oid ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, usullar, nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olingani, pedagogik hamda psixologik ta'lim konsepsiyasi, metodologiyasi, keltirilgan tahlillar va pedagogik tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlar vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning pedagogik tizimi va o'qitish texnologiyalarini, o'quv-reja hamda dasturlarini didaktik jihatdan takomillashtirish mazmunining yoritib berilganligi, mazkur jarayonni baholash mezonlari va ko'rsatkichlarining ishlab chiqilganligi, pedagogik-psixologik fanlarning bo'lajak muhandislarni texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishda didaktik imkoniyatlarining ochib berilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish modelini qo'llashning didaktik imkoniyatlarining kengaytirilgani hamda jarayon samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik shart-sharoitlar, pedagogik tizimining takomillashtirilganligi, bo'lajak muhandislarni texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-metodik tavsiyalarining ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning nazariy asoslari bo'yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

bo'lajak muhandis metrologlarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari (emotsionol-motivatsion, informatsion-kognitiv, faoliyatga doir, aksiologik) gorizontaal va vertikal munosabatga kirishish darajasini hisobga olish asosida aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Mechauz" dasturi bo'yicha 609564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP raqamli "O'zbekistonda bakalavriat texnika ta'lim yo'nalishini innovatsion g'oyalar va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish" mavzusidagi amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti 2022 yil 20 oktabrdagi 02-07-3657/04 sonli dalolatnomasi). Natijada bo'lajak muhandis metrologlarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslarining pedagogik-psixologik xususiyatlari aniqlashtirilgan;

muhandislik ta'limining loyihaviy, tashkiliy va natijaviy komponentlarini texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishga

yoʻnaltirish maxsus taʼlim texnologiyasining tizimli-funksional modelini tashkil etish orqali kompleksivlik, koʻrgazmalilik va obʼektivlik darajalarini aniqlash imkoniyatlarini tizimli-funksional, aksiologik, refleksiv hamda futurologik yondashuvlar asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqilgan dissertatsiyaning ilmiy-nazariy va amaliy xulosalaridan bakalavriat 60711300 – Metrologiya, standartlashtirish va mahsulot sifati menejmenti taʼlim yoʻnalishi “Menejment tizimlarida axborot texnologiyalari” fani dasturini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi huzuridagi Oliy taʼlimni rivojlantirish tadqiqotlari va ilgʻor texnologiyalarni tadqiq etish markazi 2022 yil 22 sentyabrdagi 02/01-01-41 sonli maʼlumotnomasi). Natijada “Menejment tizimlarida axborot texnologiyalari” fani mazmunini boyitishga xizmat qilgan;

texnika oliy taʼlim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning sinergetik, germeneytik va praktsiologik yondashuv orqali oʻquv materiallarini imitatsion-variativlik va vizual-amaliy yoʻnalganlik imkoniyatlarini kengaytirishga oid tavsiyalar “Mechauz” dasturi boʻyicha 609564-EPP-1-2019-1-EL-EPPKA2-CBHE-JP raqamli “Oʻzbekistonda bakalavriat texnika taʼlim yoʻnalishini innovatsion gʻoyalar va raqamli texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish” amaliy loyihasi doirasida belgilangan vazifalarni va FZ2020010829 raqamli “Talaba yoshlar ilmiy faoliyatida amaliy koʻnikmalarni shakllantirishning innovatsion mexanizmlari” nomli grant doirasida belgilangan vazifalarni bajarishda foydalanilgan (2022 yil 24 iyundagi Mirzo Ulugʻbek nomidagi Oʻzbekiston Milliy Universitetining 04/11-3715-sonli dalolatnomasi). Natijada texnika oliy taʼlim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishning bosqichlari, mazmuni, shakl, metodi va vositalarini yaxlitlikda oʻz ichiga qamrab olgan taʼlim modeli va texnologiyasi ishlab chiqish uchun xizmat qilgan;

boʻlajak muhandislarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning metodik taʼminot tizimi umumkasbiy fanlar mazmunini modellashtirish dasturlari bilan integratsiyalash eksperimental faoliyatni individuallashtirish bilan qayta aloqaga kirishuvining intensivligini kasbiy differensiallashtirish asosida takomillashtirishga oid tavsiyalar “Oʻzbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” koʻrsatuvi orqali asoslab berildi (2022 yil 23 iyundagi Oʻzbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Oʻzbekiston tarixi” telekanalining 06-28-980-sonli maʼlumotnomasi). Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazining 2021-2022 yillarda oʻtkazilgan targʻibot faoliyatida keng tadqiq etilib, markaz faoliyati bilan bogʻliq ilmiy-nazariy masalalariga bagʻishlangan materiallarni shakllantirishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilganligi tasdiqlandi (2022 yil 23 iyundagi Respublika maʼnaviyat va maʼrifat markazi huzuridagi ijtimoiy-maʼnaviy tadqiqotlar institutining 179-sonli maʼlumotnomasi). Natijada texnika oliy taʼlim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirishning nazariy asoslariga doir tasavvurlarini oʻstirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 13 ta respublika va ilmiy-amaliy anjumanda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 26 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta maqola, jumladan, 6 tasi respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, 143 sahifa matn, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, ob'ekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida texnologik determinizm konsepsiyasining pedagogik jihatdan mazmun-mohiyati, texnika ta'limidagi metodik ahamiyati, talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning didaktik jarayoni hamda pedagogik zarurati tadqiq etilgan.

O'zbekistonda Yangi Uyg'onish davri, ya'ni raqamli iqtisodiyot va raqamli texnologiyalarga asoslangan Uchinchi Renessans davri-O'zbekistonning taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan ta'lim-tarbiya sohasidagi strategik vazifalarning muhim yo'nalishi bu globallashtirish sharoitida innovatsion texnologiyalardan to'g'ri foydalana oladigan, jamiyat va shaxs manfaatlari uchun zarur bo'ladigan rivojlanish istiqbollari aniq belgilaydigan mutaxassislar tayyorlash masalalariga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Texnologik determinizm konsepsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlardan, adabiyotlar tahlili, tadqiqotchi olimlar tomonidan ilgari surilgan qarashlaridan kelib chiqib, aytish mumkinki: “talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish” bu-ijtimoiy taraqqiyotni texnika va texnologiyani innovatsion rivoji bilan integratsiyalovchi konsepsiyani ta'lim jarayonida pedagogik tashxis tamoyillarini qo'llash, pedagogik texnologiya tamoyillari hamda mezonlari orqali talabalar ongi va tafakkurida shakllantirish jarayonidir.

Texnologik determinizm-ijtimoiy tushunchalardagi nazariy va metodologik atama bo'lib, unga ko'ra jamiyat taraqqiyoti texnika va texnologiyaning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Hozirgi vaqtda texnologik determinizm konsepsiyasi asosida texnologiya bilan bog'liq bo'lgan bir nechta muammo, xususan, konsepsiyani o'qitishdagi

pedagogik muammolar, texnika va texnologiya tabiati, ijtimoiy ahamiyati muhokama qilinmoqda.

Tadqiq etilgan masalani har tomonlama o'rganish maqsadida bo'lajak muhandislarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirish masalalari xorijiy va mahalliy pedagogik tadqiqotlarda o'rganilganligi ko'rib chiqildi va tizimli tahlil qilindi.

O.M.Ismailov, L.X.Bektursinova M.G.Vasileva, J.U.Sevinov, F.A.Ergashev, T.D.Radjabov, D.A.Davronbekov, P.R.Ismatullayev va boshqa tadqiqotchilar tomonidan "determinizm", "deterministik", "instrumentalistik", "texnologik determinizm" kabi tushunchalar pedagogik nuqtai nazardan talqin qilingan.

XX asrning o'rtalarida taniqli nazariyotchi va amaliyotchi pedagog olimlari I.A.Kairov, M.V.Krupenina rahbarligida texnologik determinizm konsepsiyasiga pedagogik ishlov berish, didaktik materiallarni tayyorlash nazariyasi va amaliyoti metodik ta'minotlar hamda usullar orqali asoslangan edi.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish XX asr boshlarida texnika va texnologiyani, sanoat tarmoqlarini jadal rivojlanishi natijasida dastlab Amerika Qo'shma Shtatlarining Garvard Universitetida, so'ng Shvetsariya, Italiyada, XX asr o'rtalarida esa Yevropadagi ko'plab texnika va sanoat oliy maktablarida ta'lim tizimiga joriy etila boshlangan.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan, shu konsepsiyani takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari va bir qator adabiyotlar tahlilidan kelib chiqib, "**texnologik determinizm**" atamasiga mualliflik ta'rifimizni berdik: ya'ni bo'lajak muhandislarni kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirish, mazkur jarayonni amalga oshirish mazmuni, bosqichlari, modeli va pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishni ifodalovchi "**texnologik determinizm**" bu-ijtimoiy taraqqiyotni texnika va texnologiyaning innovatsion rivoji bilan integratsiyalovchi konsepsiyadir.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish oliy texnik ta'lim pedagoglari tomonidan talabaning muammoli vaziyatga kreativ yechim izlash, uni hal etish bo'yicha texnik faoliyatni rejalashtirish bilan uzviy bog'lovchi ijtimoiy taraqqiyotning nazariyasi bo'lgan didaktik jihatdan ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning innovatsion pedagogik istiqbollari hamda rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi Davlat siyosati doirasida ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, mamlakatimizni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari, eng avvalo, shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq.

"Hozirgi vaqtda mamlakatimizda 300 dan ortiq ilmiy-tadqiqot muassasalari, oliy o'quv yurtlari, tajriba-konstruktorlik tashkilotlari, ilmiy-ishlab chiqarish korxonalari, kichik innovatsion markazlar va boshqa ilmiy-texnikaviy tuzulmalar

faoliyat yuritmoqda”². Bunday faoliyat turlarini rivojlantirish uchun esa, texnika ta’limini isloh qilish, yangilik, ixtiro va innovatsiyalar yaratilishini texnologik determinizm konsepsiyasini o’qitish asosida pedagogik jarayonni tashkil qilish muhim vazifalardan biridir.

“Texnologik determinizm asoslari” maxsus kursini barcha yo’nalish mavzulari bo’yicha loyihalar tayyorlash-oliy texnik ta’limda muhim pedagogik muammolardan hisoblangan talabalarda texnoetik madaniyatni shakllantirish orqali turli didaktik natijalarning qaror topishiga hamda o’quv faoliyatini pedagogik jihatdan faollashtirishga imkon beradi.

Xulosa qilganda, oliy texnik ta’lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasiga oid bilimlarni oshirish va deterministik dunyoqarashni shakllantirish orqali bo’lajak muhandislar tayyorlash tizimini takomillashtirish, kadrlar tayyorlashda innovatsion faoliyatni to’g’ri yo’lga qo’yuvchi, yuqori kasbiy kompetentlikka ega bo’lgan texnologlarni tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning pedagogik shakli, metodi va vositalari”** deb nomlangan ikkinchi bobida talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning pedagogik mazmuni va amaliyotdagi holati, modeli, ta’lim texnologiyasi, fikrlash faolligini rivojlantirish jarayonining o’ziga xos pedagogik-psixologik xususiyatlari ochib berilgan. Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishga yo’naltirilgan pedagogik jarayonning shakl, metod va vositalari asoslangan.

Oliy ta’lim maqsadi hisoblangan pedagogik ta’lim va tarbiya jarayonining sifati bevosita yuqori malakali mutaxassis tayyorlash bilan chambarchas bog’liqdir. Shu bilan birgalikda, oliy ta’limda raqobatbardosh mutaxassislarni nafaqat professor-o’qituvchilar, balki talabalar uchun ham murakkab pedagogik jarayon hisoblanadi. Yuqori malakali mutaxassis tayyorlashning didaktik jarayoni bo’lajak bakalavr va magistrlarda kasbiy bilimlar va ko’nikmalarini shakllantirishni talab qiladi.

Bo’lg’usi muhandislarga qo’yiladigan Malaka talabalarida ham texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini pedagogik texnologiyalar asosida takomillashtirish, umumiy va xususiy didaktik qonuniyatlaridan kelib chiqib, ularning individual qobiliyatlarini o’stirish, kasbiy faoliyatga doir bilimlarini oshirish, innovatsion faoliyatning turli usul va vositalaridan samarali foydalanish malakasini egallashga doir ustuvor vazifalar belgilangan.

Dissertatsiyamizning ushbu bobida talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik-psixologik fanlar bilan didaktik uyg’unlashtirilgan texnologik fanlarning talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishdagi o’rni, ahamiyati va imkoniyatlari tadqiq etilgan. Tadqiqot jarayonida ma’ruza, amaliy mashg’ulotlar va talabalarga innovatsion to’garaklar yordamida o’quv-ilmii innovatsion loyihalarni ishlab chiqishda interfaol metodlar

² Mirziyoyev Sh.M. Yangi O’zbekiston strategiyasi. – Toshkent.: O’zbekiston. 2021. –B. 237.

va ta'limni tashxis etishga doir metodik usullardan samarali foydalanishga e'tibor qaratildi.

Didaktik maqsadlar bo'yicha dars o'tishda dialogik, polidogik va boshqa samarali pedagogik metodlarni texnologik ta'lim jarayonida qo'llash orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'quv dasturlari mazmunini boyitishga xizmat qiladigan namunaviy mavzular ro'yxati 1-jadvalda keltirib o'tilgan (1-jadvalga qarang).


1-jadval

Oliy texnik ta'lim muassasalarida o'tiladigan fanlar dasturining taqvim-mavzu rejasiga taklif etilayotgan mavzular

№	Fan nomi	Taklif etilgan mavzular nomi	Qisqacha tavsifi
1.	Menejment tizimlarida axborot texnologiyalari	Axborot tizimlarini joriy etishda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslari	Texnogen sivilizatsiya bilan bog'liq salbiy axborotlardan himoyalashdagi psixologik, hamda sun'iy intellektning inson hayotiga tajovuzini oldini olishga qaratilgan bilimlar hosil bo'ladi.
2.	Texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va nazorat qilish	Texnologik determinizm konsepsiyasida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning gumanistik xarakteri	Texnologik determinizm konsepsiyasida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirishning gumanistik xarakteri talabalarga tushuntirish va bu orqali ularda texnogen sivilizatsiya chegaralari to'g'risidagi munosabatni shakllantirish
3.	Kreativ va tanqidiy fikrlash	Texnologik determinizm konsepsiyasi asosida talabalarni tanqidiy va tahliliy tafakkurini shakllantirish	Texnologik determinizm konsepsiyasi asosida texnika va texnologik taraqqiyotning ijtimoiy taraqqiyot bilan integratsiyalashuv asoslarini analitik baholash orqali talabalarda tanqidiy va tahliliy tafakkurni shakllantiriladi.
4.	Raqamli texnologiyalar asoslari	Texnologik determinizm konsepsiyasida raqamli texnologiyalar davri tahlili.	Texnologik determinizm konsepsiyasi asosida iqtisodiyot, xizmat ko'rsatishning raqamlashuvining ijtimoiy dunyoqarashga ta'sirini o'rganadilar.

Ta'lim jarayonini to'g'ri va maqsadli tashkil etishning optimal yo'li bu modellashtirishdir. Tadqiqot ishi doirasida pragmatik, tizimli-funksional modelni ishlab chiqish maqsadi belgilandi. Modelning mazkur turi bo'lajak muhandislarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini pedagogik jarayondagi rivojlantirish vositalarini izlab topishga imkon beradi. Model sub'ekti sifatida talabalarning tayyorgarlik darajasi boshlang'ich va yakuniy holati o'rtasidagi farqqa erishishga imkon beruvchi tadqiq etilayotgan jarayonlarni boshqarish funksiyalarini aks ettirishga yordam beradi.

Bo'lajak muhandislarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirish modeli maqsadga yo'nalganlik, nazariy-metodologik, mazmunli-jarayonga doir, tashkiliy-pedagogik va natijaviylik komponentlarini o'zida ifodalaydi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning tizimli - funksional modeli

Mazkur komponentlar umumiy xususiyati bilan oliy texnik ta'lim talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilim va ko'nikmalarni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Maqsadga yo'naltirilgan blok bo'lajak muhandislarni texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini rivojlantirib, innovatsion kompetentligini shakllantirish tizimini takomillashtirishning boshqa bloklari uchun muhim. Joriy blok mazmunini aniqlashtirish bo'yicha tadqiqot ishiga oid Davlat ta'lim standarti, Malaka talablari hamda ijtimoiy buyurtma, texnik jihatdan tartibga solingan me'yoriy-huquqiy standartlar belgilab olindi. Modelning maqsad va vazifalari ham aniqlashtirildi.

Modelning natijaviylik bloki baholovchi funksiyani bajaradi (adaptiv, situativ-reproduktiv, kreativ) va tadqiqotning amaliy jihatini tavsiflab, talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish darajalari, mezonlari va ko'rsatkichlarini aks ettiradi. Tadqiqotda quyidagi uch o'lchov mezonlari aniqlashtirildi:

1) kognitiv; 2) tashkiliy-faoliyatga doir; 3) aksiologik.

Aniqlashtirilgan mezonlar asosida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida, bo'lajak muhandislarni tayyorlashda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishning ko'rsatkichlari belgilab olindi (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish darajasini baholash mezonlari

Mezonlari	Ko'rsatkichlari
Kognitiv	- bo'lajak muhandislarni texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarini takomillashtirishning metod va vositalari haqidagi bilimlarning to'liqligi
Tashkiliy-faoliyatga doir	- grafik muharrir dasturlari bilan ishlash kompetensiyasiga egalik; - texnologik sivilizatsiyaning salbiy ta'sirlariga qarshi kurashish, - sun'iy intellektning ijtimoiy tajovuzini oldini olish va kurashishda reflektiv nuqtai nazarining shakllanganligi
Aksiologik	- vatanparvarlik va umuminsoniy qadriyatlar tizimining shakllanganligi; - fuqarolik pozitsiyasining shakllanganligi

Tadqiqot jarayonida talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish yuzasidan bilim va ko'nikmalarini shakllanganligini baholashda darajali yondashuvdan foydalanildi. Mazkur yondashuv har bir mezon bo'yicha bir darajadan boshqasiga o'tishda o'rganilayotgan faoliyat dinamikasini tahlil qilish imkonini berdi, hamda quyidagi darajalari aniqlandi: adaptiv, situativ-reproduktiv, kreativ. Darajalarning qisqacha yoritilgan tavsiflari 3-jadvalda keltirib o'tilgan (3-jadvalga qarang).

**Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm
konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish darajalari tavsifi**

Mezon	Daraja	Daraja tavsifi
Kognitiv	Adaptiv	Fundamental bilimlar va texnologik determinizm konsepsiyasiga doir, jahon standartlariga muvofiq texnologik jarayonlarga moslashuvchanlik, quyi dastlabki adaptiv darajasi.
	Situativ-reproduktiv	Texnologik determinizm konsepsiyasi yuzasidan vaziyat-ijtimoiy tarmoqlardagi post ko'rinishdagi voqea, faoliyat yoki yangiliklarga brending munosabati hamda sun'iy intellektning ijtimoiy tajovuzini oldini olishda bilimlarning faol (o'rta) - situativ-reproduktiv darajasi.
	Kreativ	Texnologik determinizm konsepsiyasi asosida muammoli vaziyatga noana'naviy shakllantirishning ijodiy (yuqori) – kreativ darajasi.
Tashkiliy-faoliyatga doir	Adaptiv	Tashkiliy-boshqaruv kasblari sohasi, ular hal qiluvchi vazifalar, boshqaruv va tashkillashtirish sohasida yuzaga keluvchi muammolar, mazkur kasblarning qisqacha tarixi, madaniyatdagi o'rni bilan tanishib chiqish, quyi dastlabki adaptiv darajasi.
	Situativ-reproduktiv	nostandart muammolarni hal qila olish imkoniyatlari mavjudligiga, muntazam sur'atda kasbiy malakasini oshirishga, ijtimoiy o'zgarishlarga tayyor bo'lish, texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni shakllantirishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil etish vositasi sifatida pragmatik yo'nalganlikka egalik, faol (o'rta) - situativ-reproduktiv darajasi.
	Kreativ	Texnologik determinizm konsepsiyasi asosida texnika va texnologik taraqqiyotining sababiy bog'lanishlari, ijtimoiy taraqqiyot bilan uyg'unligi asoslarini analitik baholash orqali talabalarda tanqidiy va tahliliy tafakkurni ijodiy (yuqori)-kreativ darajasida shakllantiriladi.
Aksiologik	Adaptiv	Fuqarolik va vatanparvarlikga aksiologik yo'nalganligini nisbatan past darajasi. Texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlariga refleksiv nuqtai nazarning nisbatan shakllanganligi, quyi, dastlabki adaptiv darajasi.
	Situativ-reproduktiv	Fuqarolik va vatanparvarlikga aksiologik munosabati Faol (o'rta)-produktiv darajasida talaba texnogen sivilizatsiya tarixini, texnika haqidagi tasavvurlari boyib, aniq xulosalar chiqara oladi. Faol (o'rta) - situativ-reproduktiv daraja.
	Kreativ	Texnogen sivilizatsiya bilan ijtimoiy taraqqiyotning o'zaro integrativ aloqadorlikda rivojlanishini ijodiy (yuqori)-kreativ darajasida singdirish.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model yaxlit tavsifga ega bo'lib, uning bloklari o'zaro aloqador va yakuniy natijani aniqlashga xizmat qiladi; texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishga yo'naltirilgan harakatlarni tashkil etish vositasi sifatida pragmatik yo'nalganlikka ega; talabalarni kasbiy tayyorlash tizimi sifatida ochiq tizimni o'zida ifoda etadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Ta’lim jarayonida talabalarning texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirishga yo’naltirilgan pedagogik tajriba-sinov samaradorligi”** deb nomlanadi. Mazkur bobda tajriba-sinov ishlarini tashkil etishning mazmuni va metodikasi hamda natijalarining samaradorlik ko'rsatkichlari tadqiq etilgan.

Talabalarda texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni takomillashtirish yuzasidan tajriba-sinov ishlari uchun asoslovchi, shakllantiruvchi va ta'kidlovchi bosqichlari belgilandi.

Tajriba-sinov ishlariga Farg'ona politexnika instituti, Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Namangan muhandislik-qurilish instituti va Jizzax politexnika institutlarining 453 nafar talabalarini jalb etildi.

Matematik-statistik tahlil qilish uchun va reprezentativlik asosida mazkur oliy ta'lim muassasalarining natijalari hisoblash uchun 228 nafar tajriba va 225 nafar nazorat guruhlarini sifatida ajratildi.

Asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijalari texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlanish darajasini adaptiv (past), situativ-reproduktiv (o'rta) va kreativ (yuqori) darajalar shaklida aniqlandi.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari so'ngida texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlantirish samaradorligi qayta tekshirildi va jadval ko'rinishida umumlashtirildi.

Tajriba so'ngida olingan yakuniy miqdor ko'rsatkichlari 4,5,6-jadvallarda keltirib o'tilgan.

4-jadval

Texnika oliy ta'lim muassasalari talabalarida texnologik determinizm konsepsiyasi asoslariga doir bilimlarni rivojlanganlik darajasi

<i>Darajalar</i>	Tajriba avvalida				Tajriba so'ngida			
	Farg'ona politexnika instituti				Farg'ona politexnika instituti			
	tajriba guruhi		nazorat guruhi		tajriba guruhi		nazorat guruhi	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Kreativ	20	27,8%	19	26,7%	35	48,6%	20	28,2%
Situativ-reproduktiv	22	30,6%	23	32,4%	23	31,9%	24	33,8%
Adaptiv	30	41,6%	29	40,9%	14	19,5%	27	38,0%
<i>Jami</i>	72	100%	71	100%	72	100%	71	100%

<i>Darajalar</i>	Toshkent Davlat Texnika Universiteti				Toshkent Davlat Texnika Universiteti			
	tajriba guruhi		nazorat guruhi		tajriba guruhi		nazorat guruhi	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Kreativ	13	20,6%	18	29,0%	31	49,2%	19	30,6%
Situativ-reproduktiv	18	28,6%	20	32,3%	20	31,8%	21	33,9%
Adaptiv	32	50,8%	24	38,7%	12	19,0%	22	35,5%
Jami	63	100%	62	100%	63	100%	62	100%
<i>Darajalar</i>	Namangan muhandislik-qurilish instituti				Namangan muhandislik-qurilish instituti			
	tajriba guruhi		nazorat guruhi		tajriba guruhi		nazorat guruhi	
	soni	%	soni	%	soni	%	soni	%
Kreativ	14	31,1%	13	28,9%	22	48,9%	14	31,1%
Situativ-reproduktiv	15	33,3%	14	31,1%	15	33,3%	16	35,6%
